



## PEDAGOGIK FAOLIYATNING QONUNY ASOSLARI

**O'tayev Akram Yo'ldoshevich**

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

**Fayzullayeva Muhayyo Zohir qizi**

**Murodullayeva Mohinur Ulug'bek qizi**

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti*

*"Maktab menejmenti" 19/2 guruh talabalari*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada pedagogik faoliyatning qonuniy asoslari tushunchasi, mazmuni, pedagogik faoliyatning asosiy qonuniy tayanchlari, manbalari va uni o'zlashtirish haqida fikr yuritiladi.*

**Tayanch so'zlar:** *pedagogika, faoliyat, qonuniylik, hujjat, huquq, manba, majburiyat, asos, g'oya, o'zlashtirish, tayanch, bilim, ko'nikma, malaka.*

## ПРАВОВАЯ ОСНОВА ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Аннотация:** *Резюме: в данной статье рассматриваются понятие, содержание правовой основы педагогической деятельности, основные правовые основы педагогической деятельности, ее источники и вопросы ее освоения.*

**Ключевые слова:** *педагогика, деятельность, законность, документ, источник, обязанность, основание, идея, усвоение, опора, знания, навыки, умения.*

## LEGAL BASIS OF PEDAGOGICAL ACTIVITY

**Annotation:** *This article focuses on the concept of the legal basis of pedagogical activity, its content, the main legal bases of pedagogical activity, its sources and its appropriation.*

**Keywords:** *pedagogy, activity, legality, document, law, source, obligation, basis, idea, assimilation, support, knowledge, skills, abilities.*

Ta'lim sifatini oshirish va uning jahon hamjamiyati talablariga javob berishi borasida bir qancha qonunosti hujjatlar ishlab chiqilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2909-sonli qaroriga asosan "oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, ularning faoliyatini ilmiy yondoshish kabi muhim vazifalar belgilab berildi. [1]

Pedagogik faoliyat kasbiy faoliyatlarning negizi sifatida qonuniylik tamoyillariga asoslanadi. Bu o'rinda mazkur masalaning tahliliga diqqatingizni tortamiz.

Qonuniylik – bu muayyan faolning manbalar, me'yorlar va hujjatlarga asoslanishdir.[3] Shu ma'noda "pedagogik faoliyatning qonuniy asoslari" deganda





jamiyatda qabul qilingan me'yorlar, hujjatlar va manbalarga asoslanish tushuniladi. Mamlakatimizda pedagogik faoliyatning qonuniy asoslari tushunchalari quyidagilar asosida idrok etiladi:

ta'linga oid belgilangan qonunlardagi me'yorlar va huquqlar;

ta'limni tashkil etish va amalga oshirishga doir hujjatlarda belgilangan majburiyatlar;

ta'lim va tarbiyaga oid pedagogik manbalardagi g'oyalar, tamoyillar hamda metodlar.

Mazkur tayanchlar pedagogik faoliyatning qonuniylik tushunchasi mazmunini belgilaydi. Shu ma'noda pedagogik faoliyatning me'yorlari va huquqlari ta'linga oid qonunlar, uning majburiyatlari tegishli farmonlar, qarorlar va nizomlar hamda mazkur masalaning manbalari asosida belgilanib, ularga asosan amaliy faoliyat ko'rsatishga ta'lim beruvchilar yo'naltiriladi.

Bularning barchasi pedagogik faoliyatning qonuniy asoslari tushunchasi mazmunini belgilaydi.

Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, "me'yor" deganda ta'lim va tarbiya jarayonini amalga oshirishda inson omilining imkoniyatlarini hisobga olish, "huquq" deganda ta'lim va tarbiya jarayonida jamiyatda belgilangan qonuniylikka asoslanish, "majburiyat" deganda ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning ta'lim va tarbiya bo'yicha o'z burchlarini bajarishi hamda "manbalar" deganda me'rosda ta'lim va tarbiyaga oid taqdim etilgan tajribalarga tayanish tushuniladi. Shu jihatdan pedagogik faoliyatning qonuniy asoslari tushunchasida mazkur ma'nolar muhim o'rin tutadi. Eng asosiysi bo'lajak o'qituvchilar pedagogik faoliyatning qonuniy asoslarini o'zlashtirishga me'yoriylik, huquqiylik, majburiyatlik va manbaviylik kategoriyalarini bilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, pedagogik faoliyatning qonuniy asoslarida manbalar tushunchasini olaylik. Manba-bu tarixiylik va zamonaviylik tajribalardan o'tgan g'oyalar, bilimlar va metodlar majmuidir. Shu jihatdan pedagogik faoliyatning qonuniy asoslarida eng muhim manbalar majmui quyidagilardan iborat:

- milliy pedagogik meros;
- pedagogik ilmiy-tadqiqotchilik;
- xorijiy mamalakatlarining pedagogik merosi.

Mazkur manbalar asosida pedagogik faoliyatning qonuniy asoslari tushunchasi mazmuni keng ko'lamli idrok etiladi. Shu jihatdan pedagogik faoliyatning qonuniy asoslari tushunchasida me'yor, huquq va majburiyat kategoriyalari ham o'zining mazmuniga ega. Oliy pedagogik ta'dim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar tomonidan pedagogik faoliyatning qonuniy asoslari tushunchasini tashkil etuvchi me'yor, huquq, majburiyat va manba kategoriyalari to'liq idrok etilish kerak. Bu bilan bo'lajak o'qituvchilar kelgusi faoliyatining asoslari tushunchalari bilan kutilgan darajada kasbiy qurollanadi.





Mamlakatimizda pedagogik faoliyatning asosiy qonuniy tayanchlari milliy pedagogik tajribalar va halqaro ta'lim dasturlari me'yorlariga asosan uyg'un tarzda ishlab chiqilgan. Ushbu qonuniy tayanchlarining eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi;
- ta'limga oid davlat ta'lim standartlari va malaka talablari;
- ta'lim bo'yicha halqaro dasturlar.

Mazkur qonuniy tayanchlar pedagogik faoliyatning asosi hisoblanadi. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ham (2020 yil 23 sentyabr) pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish asoslari 5-bobda 44-46-moddalari bilan belgilangan. Unga ko'ra, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish uchun quyidagilar talab etiladi:

- a) tegishli ma'lumotga ega bo'lish (o'rta maxsus va oliy ma'lumotga);
- b) kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish (ta'lim va tarbiyaning nazariy. metodologik va amaliy asoslarini bilish);
- v) ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lish (44-modda).[3]

Bu talablar va pedagogik faoliyat uchun huquqlarni quyidagicha tushunish kerak: tegishli pedagogik ma'lumot texnikumlar va oliy ta'lim muassasalarida olinadi, kasbiy tayyorgarlikka esa mazkur ta'lim muassasalarida pedagogik va mutaxassislik fanlarini o'zlashtirish jarayonida ega bo'linadi, pedagogning ma'naviy-axloqiy fazilatlarining asosiylarini bolaparvarlik, bilimdonlik va tashabbuskorlik tashkil etadi. Mazkur talablarga javob beradigan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasida pedagogik faoliyatning qonuniy asoslari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular bo'lajak o'qituvchilar tomonidan nazariy, metodologik va amaliy jihatdan o'zlashtiriladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli qarori: "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". <http://www.lex.uz/docs/3171590>

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.

3.Yuridik atamalar lug'ati.-Toshkent, 1989.

4.O'tayev,A. Talabalar siyosiy madaniyatini takomillashtirish omillari. "Муғаллим ҳәм узликсиз билимлендириў" jurnali. №2/1. 2021.132-136 b.

5. Abdujalilova, S. A., & Qorayev, S. B. (2020). The Role Of Pedagogical Technologies In The Formation Of Students' Scientific Outlook. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(03), 2020.

